

## 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinn tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, harajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

5364,8  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

102,9 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'atlari

101,3 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmining o'sish  
sur'atlari

2860,8  
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi



Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.


### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 - yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5364,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 608,3 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 170,1 mlrd. so'mga oshib 653,6 mlrd. so'mga yetdi.

#### Taqqoslash uchun:

o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 174,9 mlrd. so'mga o'sgan va 569,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil IX - diskret (sentabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil X – diskret (oktabr) oyining hajmi 29,5 mlrd. so'mga kamaygan.

**Taqqoslash uchun:**  
2019- yilning IX va X – diskret oylari o'rtaсидаги farqi 16,7 mlrd. so'mni tashkil etган.



*Dastlabki ma'lumotlar*


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)**

Xizmatlar - jami	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
shu jumladan:	5364,8	102,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	281,0	111,5
Moliyaviy xizmatlar	1059,5	128,1
Transport xizmatlari	1309,5	101,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1256,2	101,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	117,3	87,2
Savdo xizmatlari	1439,1	95,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	145,8	91,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	227,2	84,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	86,6	94,0
Ijara xizmatlari	110,7	104,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	172,4	93,1
Shaxsiy xizmatlar	162,0	93,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	126,4	133,9
Boshqa xizmatlar	127,3	83,2

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 26,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,4 %), moliyaviy xizmatlar (19,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,2 %) qayd etildi.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush ijara sohasidagi xizmatlar- 2,1 %, yashash va ovqatlanish xizmatlar- 2,2 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar- 2,4 % hissasiga to'g'ri keldi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taq qoslanishi**



Yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi xizmatlar (33,9 %), moliyaviy xizmatlar (28,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,5 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmining sezilarli darajada (15,3 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (16,8 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (12,8 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (8,2 % ga), shaxsiy xizmatlar (6,9 % ga), kompyuterni ta'mirlash xizmatlari (6,9 % ga), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (6,0 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020 - yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 26,8 % ni tashkil etib, bu 1 439,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarni zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


### Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosи,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar  
va mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar

*Dastlabki ma'lumotlar*

Joriy davrda avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha savdo xizmatlarining ulushi 78,0 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 1059,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 784,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 19,7 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 16,5 % ni tashkil etgan.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmning 275,5 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 28,1 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati 162,6 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi, shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,7 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,9 % oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,4 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruva uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2020- yilning yanvar- oktabr oylarida)




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 281,0 mldr. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 111,5 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,6 %, nashriyotchilik xizmatlari - 1,5 %, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,6 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-oktabr oylarida)

2020 - yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 227,2 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 84,7 % ni tashkil etdi.



**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini o'z ichiga oladi.

Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 87,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 117,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmi hajmidagi ulushi atigi 2,2 % ni tashkil etdi.



### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmi oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 73,5 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 26,5 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020 - yilning yanvar-oktabr oylarida)**

2020- yilning yanvar- oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 86,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,0 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>5 364,8</b>	<b>102,9</b>	<b>2 860,8</b>
Urganch shahri	2 699,3	104,7	18 719,2
Xiva shahri	188,7	102,7	2 039,9
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	236,2	104,7	1 433,9
Gurlan	239,5	101,0	1 615,1
Qo'shko'pir	233,1	107,8	1 353,0
Urganch	377,1	84,4	1 897,0
Hazorasp	259,7	100,2	1 340,9
Tuproqqa'l'a	82,4	99,9	1 493,2
Xonqa	262,9	101,1	1 410,4
Xiva	197,9	111,1	1 358,0
Shovot	218,3	104,2	1 284,1
Yangiariq	192,6	107,3	1 658,7
Yangibozor	177,1	111,2	2 025,9

*\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (2699,3 mlrd. so'm), Urganch tumani (377,1 mlrd. so'm) va Xonqa tumanida (259,7 mlrd. so'm) qayd etildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar - oktabr oylari-da aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2860,8 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil etdi.



Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



## XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

*Dastlabki ma'lumotlar*

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Tel.: 62-22-4-65-16**

**16**

**Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**